

KONSTITUTSIYA ERKIN VA FAROVON HAYOT GAROVI

Shokirov Suhrob Bahodir o‘g‘li

*Sh. Rashidov nomidagi SamDU ‘‘Psixologiya va ijtimoi-siyosiy fanlar’’ fakulteti
‘‘siyosatshunoslik’’ 1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada konstitutsiyaning inson hayotidagi tutgan o‘rni va uning inson hayotini farovonlashtirish, yengillashtirish va fuqarolarning o‘z huquqlaridan to‘laligicha foydalanish borasidagi o‘rni haqida bo‘lib, maqolada fuqarolarning huquqlari, davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar, ijtimoiy muammolarning hal etilishi va fuqarolik jamiyatini qurish haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, demokratiya, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati, erkinlik, hokimiyatning bo‘linishi, inson huquqlari, ijtimoiy barqarorlik, adolat.

Har qanday zamonaviy-demokratik davlatning poydevori bu uning konstitutsiyasi hisoblanadi. Konstitutsiya – bu davlat va jamiyat tuzilishining asosiy ustuni va poydevori bo‘lib, fuqarolar erkinliklari va huquqlarini kafolatlaydigan hamda davlatning hokimiyat tuzilishini belgilaydigan va mamlakat taraqqiyotiga zarur bo‘lgan barcha qonunlar to‘plamini o‘z ichiga oladi. Konstitutsiyaviy huquqlar XXI asrda faqat nazariy emas, balki amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, davlat va fuqarolarining o‘zaro munosabatini tartibga solib turadi. Shuningdek, zamonaviylashib, globallashtirib borayotgan zamonda konstitutsiyalarning ham rivojlanishi bu tabiiy hol. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston respublikasi konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumini asosida qabul qilindi. Bu esa davlat va jamiyat a‘zolarining munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqishga, demokratiya va inson huquqlarini yanada adolatli ta‘minlashga xizmat qiladi.

Demokratiya (yunoncha: demos — xalq va kratos — hokimiyat) — bu hokimiyatning manbai xalq bo‘lgan boshqaruv shakli. Bu xalqning o‘zi bevosita yoki o‘zi saylagan vakillari orqali davlat siyosati va qaror qabul qilishda ishtirok etishi demakdir.

Konstitutsiyaning eng muhim jihati – bu inson huquqlari va erkinliklarini ta‘minlashdir. O‘zbekiston Konstitutsiyasining 19-moddasida «O‘zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari bir xil huquq va erkinliklarga ega hamda qonun oldida tengdirlar» deb mustahkamlangan. Bu prinsip zamonaviy huquqiy davlat qurilishining asosini tashkil etadi. Shuningdek, inson o‘zini kamol toptirishi uchun barcha shart-sharoitlar davlat tomonidan yaratib berilishi hamda o‘z huquqlari: mulkka egalik qilish, yashash, sifatli ta‘lim olish, sog‘liqni saqlash, shaxs daxlsizligi, vijdon erkinligi kabi huquqlar konstitutsiyada

kafolatlangan. Bu huquqlarni amalda qo‘llash jamiyatda barqarorlik va tinchlikni ta‘minlaydi.

Konstitutsiyaning yana bir muhim vazifasi – davlat hokimiyati tuzilishini belgilash va hokimiyatni muvozanatlashtirishdir. O‘zbekiston Konstitutsiyasida prezidentlik respublika shakli mustahkamlangan bo‘lib, davlat hokimiyatini uch tarmoqqa – Qonun chiqaruvchi, Ijro etuvchi va Sud hokimiyatlariga bo‘lingan. Bu taqsimot davlat hokimiyatini suiste‘mol qilishlarni oldini oladi, hamda fuqarolar huquq va erkinliklarini yanada samarali himoya qiladi. Oliy Majlis qonun chiqaruvchi organ sifatida xalq manfaatlarini ifodalaydi. Prezident va Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyat vakili bo‘lib, qonunlarning amalda bajarilishini ta‘minlaydi. Sud tizimi esa adolatni amalga oshiradi va fuqarolar huquqlarini himoya qiladi. Bu tizimning samarali ishlashi to‘g‘ridan-to‘g‘ri jamiyat barqarorligi va fuqarolar farovonligiga ta‘sir ko‘rsatadi.

Konstitutsiya nafaqat siyosiy, balki ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarni ham kafolatlaydi. O‘zbekiston Konstitutsiyasining 41-53 moddalarida mehnat huquqi, dam olish huquqi va ijtimoiy ta‘minot huquqlari mustahkamlangan. Bu huquqlarning amalga oshirilishi jamiyat farovonligining asosiy mezonidir. Masalan, bepul ta‘lim huquqi yoshlarning o‘ssishi va rivojlanishiga imkon beradi. Ta‘lim sifatining oshishi bevosita mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotiga ta‘sir qiladi, chunki malakali kadrlar har qanday rivojlanishning poydevoridir. Sog‘liqni saqlash huquqi esa aholining hayot davomiyligi va sifatini oshiradi, bu esa mehnat unumdorligini oshirishga yordam beradi.

Fuqarolik jamiyati asoslarini mustahkamlash uchun konstitutsiya asosiy huquqiy ustun bo‘lib xizmat qiladi. Fuqarolik asoslarini yoritib beruvchi ovoz berish huquqi, partiya larga a‘zo bo‘lish huquqi, tinch namoyishlar o‘tkazish huquqi, axborot olish va tarqatish huquqi – bunday kabi huquqlar faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga ko‘maklashadi. Shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlarining mustahkamlanib borishi davlat va fuqarolar o‘rtasidagi munosabatni muvozanatda bo‘lishini ta‘minlaydi. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda fuqarolik jamiyati institutlari: uyushmalar, siyosiy partiyalar, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari - ancha faollashib bormoqda va buning asosiy sababi konstitutsiyasining 56-moddasida belgilab o‘tilgan normalar hisoblanadi. Unda davlat inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar faoliyatini tashkil etish uchun barcha sharoitlarni yaratishi va ularning barcha huquq va erkinliklarini himoya qilishini o‘z zimmasiga olganidir.

Xulosa: Konstitutsiya haqiqatan ham erkin va farovon hayotning asosiy garovi hisoblanadi. U nafaqat fuqarolar huquqlari va erkinliklarini kafolatlaydi, balki davlat tuzilishini tartibga soladi, jamiyat taraqqiyotining yo‘nalishlarini belgilaydi. Har qanday inson omili qatnashgan jarayonlarni shakllantirish, ularning huquqiy jihatidan

mustahkamlash va ularga ko‘maklashish uchun fuqarolik huquqlarining asosiy bosh qomusimizda – Konstitutsiyada mustahkamlanishi erkin va farovon hayot barpo etish uchun asos bo‘ladi. Shu jihatdan, bunday oqilona o‘zgarishlarning bo‘lishi O‘zbekistonning jahon hamjamiyatida o‘z o‘rnini munosib egallashiga xizmat qiladi va mintaqaviy davlatlar orasida hurmatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Yangi tahrir. – Toshkent, 2023.
2. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya – xalqimiz erkinligi va davlat taraqqiyotining mustahkam poydevori. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.
3. Asadov A., Xolmatov B. Konstitutsiyaviy huquq asoslari. – Toshkent: Adolat, 2021.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining rasmiy veb-sayti. www.parliament.gov.uz
5. Tuychiyev J. Inson huquqlari: xalqaro va milliy standartlar. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.